

Andijon davlat tibbiyot instituti rentgenologiya, ultratovush, funksional va laborator diagnostika kafedrası



Kafedra mudiri: tibbiot fanlar nomzodi:

SABIROV AKROM AKBARALIYEVICH

Ish vaqti 8:00-17:00

ADTI klinikasi, maslahat poliklinikasi Andijon viloyati perinatal markazi, Andijon ko'p tarmoqli viloyat shifoxonasi, Andijon shahar ko'p tarmoqli markaziy poliklinikasi.

RENTGENOLOGIYA, ULTRATOVUSH, FUNKSIONAL VA LABORATOR DIAGNOSTIKA KAFEDRASII TARIXI VA FAOLIYATI

Rentgenologiya, ultratovush, funksional va laborator diagnostika kafedrası tarixi va faoliyati 2016-yili tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning 1998 yil 10 noyabrdagi PF-2107 "O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish" haqidagi Farmoni asosida tibbiyot tizimida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Islohotlar natijasida yangi soha, yangi yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash joriy etildi.

Institut rektorati va o'sha davrdagi VMOF dekani Nazarova Gulchehra Usmonovna tashabbusi bilan 2016 yili dastlab tibbiy radiologiya, funksional va laborator diagnostika kafedrası UASH MO va QT kafedrası qoshida kurs sifatida tashkil etildi. 2016 yil sentabr oyidan tibbiy radiologiya, funksional va laborator diagnostika kafedrası alohida kafedra sifatida ish faoliyatini boshladi. Kafedraning dastlabki mudiri sifatida tibbiyot fanlari nomzodi Sobirov Akrom Akbaraliyevich tayinlandi. Yangi ochilgan kafedraning ish faoliyatini tashkillashtirish, oliy ta'lim va sog'liqni saqlash tizimidagi davlat nizomlarining barcha talablariga to'laqonli javob berishida VMOF sobiq dekani Nazarova Gulchehra Usmonovnaning xizmatlari beqiyos bo'ldi. Bu kafedra Farg'ona vodiysidagi ultratovush tekshiruv, rentgenologiya va laborator diagnostika yo'nalishi bo'yicha ixtisoslashtirish va malaka oshirish kursida o'qimoqchi bo'lgan shifokorlar uchun o'quv - uslubiy va ilmiy – amaliy malaka oshirish markazi maqomiga ega bo'ldi. Tibbiy radiologiya, funksional va laborator diagnostika kafedrasida multimediali ma'ruzalar zali,

o'quv xonasidan tashqari bemorlar bilan ishlash maqsadida zamonaviy jihozlangan ultratovush tekshiruv, rentgen tekshiruv xonalari, laborator tahlillar bilan ishlash xonalari mavjud.

Kafedra tashkil qilinishida ADTI klinikasi o'quv markazlari asos bo'ldi.

2018-yil 3-yanvar sanasidan kafedraning nomi "Rentgenologiya, ultratovush, funksional va laborator diagnostika" deb yuritila boshladi.

Kafedra hayotidan fotolavhalar



Kafedrada o'qitiladigan fanlar:

I. Ultratovush tekshiruv ixtisoslashtirish

II. Ultratovush tekshiruv shifokorlarini malakasini oshirish

III. Rentgenologiya ixtisoslashtirish
IV. Rentgenologiya malakasini oshirish
V. Laborator tashxis ixtisoslashtirish
VI. Laborator tashxis malakasini oshirish

Hozirda rentgenologiya, ultratovush, funksional va laborator diagnostika kafedrasida 3 nafar fan nomzodlari, 1 nafar dotsent va 8 nafar assistent-o'qituvchilar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

BUGUNGI KUNDA RENTGENOLOGIYA, ULTRATOVUSH, FUNKSIONAL VA LABORATOR DIAGNOSTIKA KAFEDRASI JAMOASI:

<p style="text-align: center;">Sabirov Akrom Akbaraliyevich Kafedra mudiri, t.f.n.</p> <p>1964-yil 30-aprel sanasida Andijon shahrida tavallud topgan. 1987-yili ADTIning tamomlagan. 40 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar muallifi.</p>
<p style="text-align: center;">Mamajonov Zafar Abdujalilovich t.f.n., dotsent</p> <p>1962-yil Fargona viloyati, Oltiariq tumanida tug'ilgan. 1988-yili ADTIning tamomlagan. 72 dan ortiq ilmiy maqola va tezis, 42 ta o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi.</p>
<p style="text-align: center;">Azizov G'ofur Abdurahimovich Kafedra o'quv ishlari bo'yicha mas'ul, t.f.n., assistent</p> <p>1957-yili Qirg'iziston Respublikasi, O'sh viloyatida tug'ilgan. 1980 yili ADTI, davolash fakultetini tamomlagan. 40 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 5 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tatbiq etilgan ishlar, 1 ta ixtiro, 5 ta o'quv qo'llanma, 32ta o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi.</p>
<p style="text-align: center;">Madumarova Zarnigor Shuxratovna assistent, kafedra ilmiy ishlari bo'yicha mas'ul</p> <p>1990-yil Andijon viloyati, Andijon shahrida tug'ilgan. 2013-yili ADTI, davolash fakultetini tamomlagan. 70 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 2 ta patent, 15 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tatbiq etilgan ishlar muallifi.</p>
<p style="text-align: center;">Bahramov Sardorbek Talatovich assistent, ma'naviyat ishlari bo'yicha ma'sul</p> <p>1989-yil Andijon viloyati, Andijon shahrida tug'ilgan. 2013-yil ADTI, davolash fakultetini tamomlagan. 6 ta dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 1 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tatbiq etilgan ishlar muallifi.</p>

Umrzakov Akmal Israilovich

assistent

1974 - yil Andijon viloyati, Andijon shahrida tug'ilgan. 15 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 3 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tatbiq etilgan ishlar muallifi.

Mahmudova Komila Shavkatovna

assistent

1986-yil Farg'ona viloyati, Farg'ona shahrida tug'ilgan. 2008 yili ADTI, davolash fakultetini tamomlagan. 50 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 30 ta ratsionalizatorlik takliflari va amaliyotga tadbiq etilgan ishlar, 1 ta o'quv qo'llanma, 5 ta o'quv-uslubiy qo'llanmalar muallifi.

Turgunova Dilorom Abduvalievna

assistent

1970-yil Namangan viloyati, Uchqo'rg'on shahrida tug'ilgan. 1994-yili ADTI, davolash fakultetini tamomlagan.

Ibragimova Mamura Tursunovna

assistent

1961-yil Andijon viloyati, Qo'rg'on tepa tumanida tug'ilgan. 1988-yili ADTI, davolash fakultetini tamomlagan.